

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT SHAHAR XALQ TA`LIMI BOSH BOSHQARMASI**

**TOSHKENT SHAHAR YASHNOBOD TUMANIDAGI 61-MAKTABNING
O`ZBEK TILI FANI O`QITUVCHISI
AKRAMOVA MA`PURANING O`ZBEK TILI FANIDAN 7- SINF
UCHUN “Alisher Navoiy” MAVZUSIDAGI BIR SOATLIK DARS
ISHLANMASI**

Mavzu: Alisher Navoiy (1-soat)

(-gan qo'shimchali sifatdoshlarning qo'llanishi)

Darsning ta'limiy maqsadi: buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, -gan qo'shimchali sifatdoshlarning qo'llanishi haqida ma'lumot berish, o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda bayon qilish, mavzudan kelib chiqib savollarni to'g'ri qo'yish va javob berish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni boy merosimizni o'rgangan holda ma'naviy yetuk inson ruhida tarbiyalab borish. Xalqimizning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarni mavjud ma'lumotlar bilan ishlay olishga, mustaqil fikrini bayon etishga o'rgatib borish. Muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilishga o'rgatish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: suhbat, tushuntirish, ko'rgazmalilik, "Tezkor savollar", "2 haqiqat va 1 yolg'on" metodi, "Esse" usuli.

Dars jihozi: Alisher Navoiy portreti, ularning asarlaridan tashkil etilgan ko'rgazma, AKT, taqdimot, tarqatma materiallar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: hamkorlikda ishlash metodi.

Darsning shiori: "Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur".

Darsning rejasi:

- | | | |
|-------------------------------|---|-----------|
| • Tashkily qism | - | 3 daqiqa |
| • O'tilgan mavzuni takrorlash | - | 5 daqiqa |
| • Yangi mavzu | - | 15 daqiqa |
| • Mustahkamlash | - | 15 daqiqa |
| • Uyga vazifa | - | 5 daqiqa |

- O‘quvchilarni baholash - 2 daqiqa

I. Darsning borishi:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

“Tezkor savollar” metodi. Ushbu metodda o‘qituvchining savollariga o‘quvchilar tezkor ravishda bir so‘z yoki bir jumla bilan javob berishlari kerak.

SAVOLLAR:

O‘zbek tilining asoschisi kim? (Alisher Navoiy)

Alisher Navoiy qayerda tavallud topgan? (Hirotda)

Alisher Navoiyning tug‘ilgan sanalari? (1441 yil 9 fevral)

Ularning eng mashhur asarlari bu ... (Hamsa)

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:

(Donolar bisotidan. Shart maylidagi fe’lning *kerak*, *bo‘ladi* so‘zlari bilan qo‘llanishi)

O‘tilgan mavzu 2 haqiqat, 1 yolg‘on usuli orqali mustahkamlanadi.

Kartochkalarga 2 ta to‘g‘ri va 1 ta noto‘g‘ri javob yoziladi. O‘quvchilar to‘g‘ri javobni ko‘rsata olishlari kerak.

KARTOCHKA

1. Doimo odob-axloq qoidalariga rioya qilish kerak.
2. Kitobda matn berilmagan.
3. Ko‘rik –tanlovda barcha qatnashsa bo‘ladi.

Izoh: kartochka guruhlariga beriladi. Sinfning bilim darajasiga qarab, kartochkalardagi gaplar turlicha bo‘lishi mumkin. Lekin asosiy qoida kartochkada o‘tgan mavzuga taalluqli 2 ta haqiqat, 1 ta gap esa umuman mavzuga aloqasi bo‘lmasligi kerak.

O'quvchilarning javoblari umumlashtiriladi va ishlar baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Buyuk shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy bobomiz haqida slayd taqdimoti o'tkaziladi.

Keyingi bosqichda grammatik mavzu o'quvchilarga tushuntiriladi.

Bilib oling!

Narsa-buyumning belgisini bildirgan fe'l shakli sifatdosh deb ataladi. Sifatdoshlar

-gan qo'shimchasi bilan hosil qilinadi va sifat kabi otga bog'lanib, uning belgisini bildirib keladi. Masalan: *Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.*

Sifatdoshlar uzoq o'tgan zamon fe'li bilan shakldosh bo'lib, ular nutqda quyidagicha qo'llanadi:

O'quvchi nima qilgan?		Nima qilgan o'quvchi?	
yozgan		yozgan	
o'qigan		o'qigan	
O'quvchi	- javob bergan	javob bergan	- O'quvchi
dam olgan		dam olgan	
kelgan		kelgan	

O'qituvchi o'quvchilarga misollar keltirishni taklif qiladi.

Guruhlarga quyidagi tartibda alohida topshiriqlar beriladi:

1. Matn mazmuniga mos sarlavha toping.
2. Matndagi lug'atlar bilan ishlash.
3. Matn mazmunini qisqacha tarjima qilish.

4. **-gan** qo‘shimchali so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing, ularning yasallishiga e’tibor bering.

O‘quvchilarga yangi so‘zlar lug‘ati taqdim etiladi. Ular o‘z matnlariga tegishli bo‘lgan yangi so‘zlarni topib, yozib olishlari kerak.

LUG‘AT

abadiylashtirish-	увековечит	madaniyat-	культура
betakror-	неповторимый	mashhur-	известный
davlat arbobi-	государственный	muhrboshi –	хранитель печати
деятель		navo -	мелодия
do‘st-	друг	qobiliyat-	способность
faoliyat-	деятельность	taxallus-	псевдоним
faylasuf-	философ	tirishqoq -	старательный
homi-	спонсор	unvon -	звания
keyinchalik-	позже	yodgorliklar-	памятники
ko‘zda tutilmoqda-	намечается	zehn-	сообразительность

I-guruh

O‘zbek adabiyotining quyoshi, adabiy tilimizni kamolotga yetkazgan Amir Nizomiddin Alisher ibn G‘iyosiddin Navoiy 1441-yil 9 fevralda Hirot shahrida tavallud topdi. Yoshlikdan u bo‘ljak hukumdor Husayin Boyqaro bilan qalin do‘st bo‘lgan. Alisher Navoiy yoshligidan o‘zining zehni, qobiliyati va tirishqoqligi bilan ajralib turgan. Yoshligiga qaramay, o‘sha davr shoirlarining she’rlarini yoddan bilgan.

II-guruh

Alisher Navoiy shoir, faylasuf, ilm ahlining homiysi hamda davlat arbobi. U o‘ta tadbirkor, adolatli, sahovatpesha, halol inson bo‘lganligi uchun Husayin Boyqaro unga davlat arbobi sifatida faoliyat ko‘rsatishni taklif qiladi.

1469 yilda Husayin Boyqaro hukumdorligi davrida muhrboshi, 1472 yilda esa Bosh vazir va Amir unvoniga ega bo‘lib faoliyat yuritadi.

III-guruh

Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanib, o‘zbek tilida yozgan asarlariga Navoiy (navo ma’nosida) taxallusini qo‘yar edi. Fors tilida yaratgan asarlari esa Foniyy taxallusi ostida yaratilar edi. Uning eng mashhur asari bu “Hamsa”dir. Hamsa o‘z ichiga beshta asarni oladi: “Hayratul Abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy”. O‘z asarlarida ming yillik sharqona madaniyat, urf-odatlarini aks ettirgan. Alisher Navoiy betakror asarlar yaratgan.

IV-guruh

Shoirning nomini abadiylashtirish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilgan: O‘zbekiston shaharlarining biri Navoiy deb nomlanadi. Toshkent shahrida Navoiy nomli Opera va balet teatri, Alisher Navoiy ko‘chasi, Alisher Navoiy nomli metro stansiyasi bor. Alisher Navoiyga bag‘ishlab qo‘yilgan bir nechta yodgorliklar bor (Moskvada, Toshkentda, Navoiyda, Tokioda). Rejada keyinchalik Vashington va Bakuda Navoiyga atab haykal qo‘yish ko‘zda tutilmoqda. 1991 yilda shoirning 550-yilligiga bag‘ishlab, shoirning tasviri bo‘lgan yubiley tangasi chiqarilgan.

IV. Mustahkamlash: Oquvchilar o‘zlari bajargan ishlari bo‘yicha taqdimotni o‘tkazadilar

O‘quvchilar “Esse” usulida o‘tilgan mavzuni mustahkamlaydilar. Uning sharti quyidagicha: Har bir o‘quvchi boshqa guruhlar tomonidan aytib o‘tilgan biror bir ma’lumotni qisqacha yozadi. Shu tariqa qog‘ozda 3 ta ma’lumot bo‘ladi.

Masalan, I-guruh ishtirokchisi:

- Alisher Navoiy - shoir.
- Shoirning mashhur asari “Hamsa”.
- Alisher Navoiy nomli metro stansiyasi bor.

O‘quvchilar bir birlariga guruhdagi faolliklariga qarab baho qo‘yadilar

№	O'quvchining ismi va sharifi	Topshiriqlarda bajargan ishi	Bahosi
1			
2			
3			
4			

So'ng "BBB" mashg'uloti tashkil etiladi. Kichik guruhlarning barcha ishtirokchilari 5 minut ichida o'zlari bilgan ma'lumotlarni yozadilar.

Bilaman	Bilmoqchiman	Bildim
G'azal mulking sultoni	Hayoti haqida ma'lumot	1441-yil 9-fevralda Hirotida tug'ilgan.
Turkiy tilning asoschisi	Taxalluslari	Turkiyda Navoiy, forsiy tilda Foni
Zullisonayn shoir	"Xamsa" haqida ma'lumot	1483-1485-yillarda yozilgan. 5 dostonidan iborat.
Mutafakkirlar mutaffakkiri	Qanday lavozimlarda ishlagan?	Hokim, vazir, muhrdor

V. Uy vazifasi: 2-topshiriqdagi hikmatlarni yod olish. Navoiy haqida “Klaster” usulida ma`lumtolar yozib kelish.

Darsni yakunlash va fikrlarni xulosalash:

Aziz o`quvcilar, bu yil bobomizning 575 yillik yubileyi nishonlandi. Muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek: “She`riyat mulkining sultoni, avliyolarning avliyosi, mutafakkirlarning mutafakkiri “o`zbek adabiy tilining asoschisi, adabiyotimizning zalvorli ustuni bo`lgan Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodini o`rganmog`imiz va hayot yo`limizda bu hikmatlarga amal qilmo`gimiz lozim!